



INTERNATIONAL JOURNAL OF
LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS



inter-publishing.com





Kutubxona qalb gavhari....

O'tkirbek Narbayev

Jizzax viloyati Do'stlik tuman axborot kutubxona mutaxassisi

Abstract: In the article, it is mentioned that a lecturer should be literate, capable of conveying his speech in a beautiful and understandable manner, and capable of clearly explaining his ideas and feelings in words. Thoughts of handsome, well-educated, and impressively speaking instructors instantly infiltrate students' minds, offering a terrific opportunity for them to learn educational issues, and students anxiously await such teachers' lectures. Teachers should work tirelessly on their speech, practicing how to make words beautiful, meaningful, and extraordinary, and always exercise the strength of voice ranges, mobility of speech timbre, and diction.

Key words: pedagogical activity, educational information, accurate pronunciation, speech skill, professional self-education.

Maktab kutubxonalari axborot va bilimga tobora ko'proq asoslanib borayotgan zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat olib borish uchun fundamental ahamiyat kasb etuvchi ma'lumot va g'oyalarni taqdim etadi. Maktab kutubxonalari o'quvchilarni umrbod ta'lim olish ko'nikmalari bilan qurollantiradi, ularning tasavvurlarini rivojlantiradi va bolalarning mas'uliyatli fuqaro bo'lib yetishishlariga ko'maklashadi.

Xalqaro kutubxonalar uyushmalari va muassasalari federatsiyasining maktab kutubxonalari to'g'risidagi manifesti nutqida shunday deyiladi.

Amesbury ingliz maktabi o'qituvchisining fikricha, kutubxona, bu – faqatgina kitoblar saqlash va mutolaa maskani emas. Bu yerda bolalar nafaqat maktab dasturlarini o'qishadi, balki hayotni o'rganadilar. Shuning uchun maktab xodimlari kutubxonada shunday muhit yaratilishi kerakki, ushbu izlanishlarni olib borish osonlashsin, biroq yana-da muhimrog'i – bolalarda tadqiqot o'tkazish istak-xohishi uyg'onsin, deb hisoblaydilar.

Yorug' bino, yumshoq o'rindiqlar va binbeglar, bolalarning bo'yiga mos kitob javonlari, stol usti o'yinlari va konstruktorlar, shuningdek, bolani dunyoni o'rganishga qiziqtiradigan texnologiyalar - bularning barchasi zamonaviy maktab kutubxonalarining jim o'tirib kitob o'qiydigan emas, balki kashfiyot, o'zaro ta'sir va o'yin maydoni bo'lib xizmat qilishiga zamin yaratadi.

Shvetsiyaning 30 dan ortiq ta'lim muassasalariga ega Vittra maktab tashkiloti har bir maktabni loyihalashda kutubxonani binoning markaziy va muhim ahamiyatga ega elementi sifatida ko'radi. Misol uchun, Stokgolmdagi maktablardan birida kutubxona xoll markazida joylashgan bo'lib, boshqa joylardan "xazina qutisi" kabi ochiladigan qora hajm bilan ajratilgan.

Nyu-Mexiko munitsipal kutubxonasi xodimlari rivojlangan maktab kutubxonalarini dasturi bolalarning akademik muvaffaqiyatlarini yaxshilashi hamda ularning keyingi hayotlarida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshirishi, bunda yumshoq ko'nikmalar (tanqidiy fikrlash, shaxslararo munosabatlar, hissiy intellekt, ijodkorlik, tinglash va axborotni qayta ishlash, o'z-o'zini tashkil qilish) akademik bilimlarga qaraganda muhimroq rol o'ynashini aniqlashdi.

Biroq bu muvaffaqiyat maktab kutubxonachilarining malakasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning vazifasi o'quvchilarga beriladigan kitoblarni ro'yxatga oluvchi emas, balki o'qituvchi bo'lishdan iboratdir. Maktab kutubxonachilari Xalqaro kutubxonalar assotsiatsiyasi va muassasalari federatsiyasi tushunchasiga ko'ra, bolalarga ma'lumotni qidirish va uni to'g'ri tahlil qilishda yordam beradigan odamlardir.

O'zbekistondagi maktab kutubxonalarini raqamlarda

Maktabdan tashqari ta'lim, sport va turizmni tashkil etish boshqarmasi boshlig'i Murodjon Qoraboyevning "Gazete.uz"ga ma'lum qilishicha, respublikadagi 10130 ta maktabdan atigi 22 tasida kutubxona yo'q. Shu bilan birga, 3671 ta maktabda o'quv zallari mavjud emas.

Mutaxassisning so'zlariga ko'ra, Xalqaro kutubxona uyushmalari va muassasalari federatsiyasi har bir o'quvchiga 7-8 nusxadan kitob ajratishni tavsiya qiladi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich, darsliklarni hisobga olmaganda, har bir bolaga atigi 1,5 tadanni tashkil etadi.

Ammo bugungi kunda kutubxona fondining aniq hajmini aniqlash qiyin, dedi Murodjon Qoraboyev. Bu kitoblarning elektron bazasi yo'qligi bilan bog'liq. Hozirda Toshkentdagi 41 ta maktabda kutubxonalarini raqamlashtirish sinov tariqasida joriy etildi. Respublika maktab kutubxonalarida kitoblarning elektron hisobini yuritishni 2026-yilgacha yakunlash rejalashtirilgan.

Kitoblarning qog'oz hisobini yuritish kutubxonachilar ish vaqtining asosiy qismini egallaydi, deya tan oldi ba'zi kutubxonachilar. Ko'pincha kitoblar yo'qoladi va topilmaydi, maktabda qancha va qanday kitoblar borligi hamda hozirda bu kitoblar kimning qo'lida ekanligi ma'lum emas.

Mening asosiy vazifam – bolalarni kutubxonaga jalb qilish, ularga qiziqarli adabiyotlarni tanlashda yordam berish va darsliklar bilan ta'minlashdan iborat.

Bu yerga bolalar shug'ullanish, muloqot qilish, dunyo qarashini kengaytirish uchun kelishadi. Kutubxonamiz kompyuter va internet bilan jihozlanganligi tufayli bolalar asarlar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni onlayn tarzda olishlari mumkin. Ularda shunday istak uyg'onadi, sababi adabiyot har birimizga har xil ta'sir qiladi. Bundan tashqari, biz yaqinda audiokitoblarni qabul qilib oldik, ularni bolalarning iltimosiga ko'ra telefonlariga o'tkazib beramiz.

Men boshlang'ich maktab o'quvchilariga ovoz chiqarib o'qib beraman, keyin ulardan qahramonlarning fe'l-atvori, personajlarning ijobiy va salbiy taraflari haqida so'rayman. Eshi kattaroq bolalar allaqachon o'zlari o'qishga qiziqib qolgan, kelib, kitobni tanlab, olib ketishadi.

Ba'zi bolalar va hatto ularning ota-onalari mendan o'z so'zlarim bilan biron-bir romanni tasvirlab berishimni so'rashadi. Hamma ota-onalarda ham smartfon bor emas. Bundan tashqari, ular kitob o'qishga vaqtlari yo'qligini aytishadi. Men ularga kelib, o'zlari o'qishlarini tavsiya qilaman. Agar ular chindan ham xohlashsa, kelishadi va o'qib ketishadi. Lekin menga kitob nima haqida ekanligini aytib berish qiyin emas, shuning uchun ham shu kabi suhbatlarni o'tkazaman.

O'quvchilarimiz ko'proq she'riyatga qiziqishadi, shuning uchun ham Muhammad Yusuf, Zulfiya - kabi shoirlarning asarlariga talab katta. Boshlang'ich sinf o'quvchilari «Gulliverning sarguzashtlari» va boshqa ertaklarni sevishadi. Katta sinf o'quvchilariga esa - Alisher Navoiy, Boburning she'rlari qiziq. Bolalar kitoblarni qaytarib berishayotganda esa men ulardan bu kitobdan nimani olganlari, nimani tushunib yetganlarini so'rayman. Ularning so'zlariga qarab ular rostdan o'qigan yoki yo'qligini tushunib olaman.

Bolalarga kutubxonalar kerak. Kitoblarda o'qiganlari xotiralarida qoladi. Internetdan olingan ma'lumotlar ham esda qoladi, biroq qo'shimcha ma'lumot olish uchun bolalar kitoblarga murojaat qilishadi. Shuning uchun ham kutubxonachilar juda ham kerak.

Bundan tashqari, uyda har doim ham kitob o'qishga sharoit bo'lmaydi. Agar telefon bo'lsa, demak kitob o'qishga sharoit yo'q, deb hisoblayvering. Qishloqlarda bolalar uy ishlari bilan shug'ullanishadi, ota-onalari ularga kitob sotib olib berishmaydi. Bola maktab kutubxonasiga kirib, kitoblarni ko'rganida, uni o'qishni xohlaydi.

Kitob o'qish avvalo bolada ma'naviyatni rivojlantiradi. Prezident aytganidek, yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi. Demak, biz uchun kitob birinchi o'rinda turishi kerak. O'qish bolaning dunyoqarashi, xotirasi va fikrlashini rivojlantiradi.

Men maktab rahbariyatiga kutubxonamiz fondini to'ldirish taklifi bilan murojaat qildim. Agar har bir bitiruvchi hech bo'lmasa, bittadan kitob sovg'a qilsa, ularning soni ko'payadi. Eki bizga tadbirkorlar yordam bersa, kutubxonada ertak va badiiy adabiyotlar yana-da ortadi. Men o'zim ham kitob xarid qilish uchun bozorma-bozor yuraman.

O'ylaymanki, kelajakda maktab kutubxonasining vazifalaridan biri kam ta'minlangan bolalarni o'qishga maqsadli jalb qilish bo'lishi mumkin. Agar bizda sharoitlar bo'lganda, biz bu bolalarga o'z uylaridayoq kitob o'qib berishimiz mumkin bo'ladi.

REFERENCE

1. Shir Muhammad mirab Munis and Muhammad Riza mirab Agahi. Firdaws al-iqbal. History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. Leiden, 1988. 1280 p.
2. Abulgazi Bahadirhan. Shajarayi Türk / Responsible editor B. Akhmedov. Preparers for publication:
3. K. Munirov, K. Makhmudov. - Tashkent: Cholpon, 1992. - 190 p [Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi turk / Mas'ul muharrir B. Ahmedov. Nashrga tayyorlovchilar: Q. Munirov, Q. Mahmudov. - Toshkent: Cho'lpon, 1992. - 190 b].
4. Agzamova G.A. On the caravan routes from Khiva to Orenburg // Social Sciences in Uzbekistan. - 1991. - № 12. - p. 43-48 [Agzamova G.A. O karavannyh putyah iz Hivy v Orenburg // Obshchestvennye nauki v Uzbekistane. - 1991. - № 12. - B. 43-48].
5. Agzamova G.A. The Central Asian centres of trade and routes linking ix with Russia: Dissertation ... Conf. of Science - T., 1990. - 195 p [Agzamova G.A. Sredneaziatskie centry trgovli i puti, svyazyvayushie ih s Rossiej.: Diskand. istor. nauk. - T., 1990. - 195].